

INKLYUZIV TA'LIMDA PEDAGOGNING ROLI VA O'RNI.

Shamsiyeva Dilso'z Hasan qizi ¹¹ Xalqaro Innovatsion universiteti Pedagogika

yo'nalishi 2301-guruh talabasi

e-mail: yusufshamsiyev01@gmail.com

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:16.06.2025

Revised: 17.06.2025

Accepted:18.06.2025

KALIT SO'ZLAR:

Inklyuziv ta'lim,
pedagogika, imkoniyati
cheklangan bolalar,
pedagogning roli,
integratsiya, inklyuziv
muhit, pedagogik
kompetensiya,
moslashtirilgan o'quv
muhiti, o'quvchilarni
psixologik qo'llab-
quvvatlash.

Har bir bola ta'lim muasasalarida o'qishi va bilim olish huquqiga ega. Davlatimizda keng shart-sharoitlar yaratilgan hattoki imkoniyati cheklangan bolalarni ham ta'lim olishga imkoniyatlari teng. Shu kabi bolalar uchun esa alohida pedagoglar yetuk kadrlar faoliyat olib borishadi hamda bolalarni ijtimoiy hayotga to'laqonli moslashishni ta'minlaydilar.

KIRISH. Bugungi globalashuv davrida ta'lim sohasida keng imkoniyatlar yaratish muhim vazifa sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta'lim-imkoniyati cheklangan bolalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj guruh vakillarini umumiy ta'lim tizimiga to'liq integratsiya qilishni ko'zda tutadi. Jahon sog'liqni saqlash (JSSt) va YuNESKO sog'liqni saqlash tashkiloti dunyo bo'yicha maktab yoshidagi bolalarning taxminan 15 foizi imkoniyati cheklangan toifadadir. Shu bois, pedagogning inklyuziv ta'limdagibroli nihoyatda mas'uliyatli va murakkab hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limning asosiy vazifasi-barcha bolalarning yoshi, jismoniy va aqliy jihatdan mkoniyatlaridan qat'i nazar teng ta'lim olish huquqini ta'minlashdir. YuNESKO ning 1994-yilgi Salamanca Deklaratsiyasi inklyuziv ta'limni ta'lim siyosatining ajralmas qismi sifatida belgilagan. Inklyuziv muhitda pedagog quyidagi vazifalarni bajaradi. 1. Didaktik vazifa: har bir o'quvchi uchun mos ta'lim dasturini tuzadi; deffirensial va individual yondashuvni amalga oshiradi. 2. Tarbiyaviy vazifa: o'quvchilarda o'zaro hurmat, birdamlik va tolerantlikni shakllantiradi. 3. Konsultativ vazifa: ota-onalar, defiktolog, logoped, psixolog kabi mutaxassislar bilan hamkorlik qiladi. 4. Diagnostik vazifa: o'quvchilarning psixologik rivojlanishini kuzatib boradi va moslashtirilgan metodlarni ishlab chiqadi. Misol tariqasida shuni aytish joizki, Finlandiya va Daniyada inklyuziv ta'lim muvafaqqiyatli joriy etilgan davlatlar sifatida tan olingan. Bu yerda har bir sinfda yordamchi o'qituvchi faoliyat yuritadi. Inklyuziv ta'lim pedagogi bir qancha ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishi shartdir. Pedagogik-psixologik tayyorgarlik: nogironlikning turlari va ularning ta'lim jarayoniga ta'sirini bilishi. Innovatsion metodikalar: defferinsial o'qitish, ko'rgazmali va texnologik vositalardan foydalanish. Kommunikativ madaniyat: o'quvchi va uning oilasi bilan samarali muloqot o'rnatish. Empatiya va tolerantlik: har bir bolaga mehr va individual yondashuvni amalga oshirish. Inklyuziv ta'limga yanada kengroq ma'lumot beradigan bo'lsak barcha o'quvchilar uchun maxsus ehtiyojlari va indivual imkoniyatlarning farqliligini inobatga muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlash hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim-o'quvchilarning imkoniyatlari individual, psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayondir. Imkoniyati cheklangan bolalar maktabga qadam qo'yan kunlaridan boshlab alohida qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladilar. Shu vaqtda pedagogning roli va o'rni beqiyos hisoblanadi. Har bir insonda yashirin qobiliyati mavjud. Ana shu qobiliyatni yuzaga chiqarish uchun kimningdir ko'magi darkor bo'ladi. Pedagog imkoniyati cheklangan bolani ijtimoiy hayotga moslashishi, o'zi uchun do'stlar orttirishi hamda qobiliyatlarini namoyon qilishga yordamlashishi va ko'maklashishi lozimdir. Pedagog imkoniyati cheklangan bolani o'z tengdoshlarining masxara qilmasliklari, kamsitmasliklarini tayinlashi, unga qo'ldan kelgancha yordam berishlari kerak ekanligini tushuntirishi lozim hisoblanadi. Pedagog bolaga e'tiborli hamda individual ishlashi lozim. Ya'ni darsdan tashqari ortda qolayotgan fanlari yuzasidan birgalikda individual ishlashi kerak. Pedagog bola haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi hamda ota-onasi bilan muloqotda bo'lib turishi joizdir. Imkoniyati cheklangan bolalar turli xilda bo'lishlari mumkin. Masalan: eshitishida nuqsoni bo'lgan, ko'rishida nuqsoni bo'lgan, tayanch-harakatida nuqsoni bo'lgan bolalar sanaladi. Inklyuziv ta'lim inglizcha „inclusion" - uyg'unlashgan-jalb qilingan degan ma'noni anglatadi. Alohida pedagogik dasturiy vositalar mavjud-kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy

texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi); texnik va metodik ta'minot qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi. Pedagogik dasturlarni bor qancha turlarga ajratish mumkin: o'rgatuvchi dasturlar-o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi. Test dasturlari-egag'g'angan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadg'arida qo'llaniladi. Mashq qildirgichlar-avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi. O'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-iyundagi „Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari terisida" gi PQ-5150-son qarori asosida, inklyuziv ta'lim bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda. Respublikada 2023-yil holatiga ko'ra 300 dan ortiq maktabda inklyuziv sinflar tashkil etilgan. Shu jarayonda pedagoglarning qayta tayyorlanishi va malakasini oshirish Davlat pedagogika institutlari va ixtisoslashgan markazlar orqali amalga oshirilmoqda.

Inklyuziv ta'lim nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun rivojlangan tolerant va hamjihat muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda pedagogning roli asosiy bog'lovchi bo'lib, ul faqatgina bilim emas, balki o'quvchilarning rivojlanish imkoniyatlarini ochib beruvchi, qo'llab-quvvatlovchi, motivatsiya manbai bo'ladi. Shuning uchun zamonaviy pedagog o'z ustida tinimsiz ishlashi, innovatsion metodlarni o'zlashtirishi va yuksak insonparvarlik tamoyillariga amal qilishi talab etiladi. Pedagogning mas'ulyati faqat o'quv jarayonini tashkil etish bilan cheklanmaydi. U quyidagi rollarni amalga oshiradi. 1. Ta'lim jarayonini moslashtiruvchi: o'quv dasturlarini individual ehtiyojlarga moslaydi; maxsus didaktik materiallar va alternativ baholash usullarini ishlab chiqadi; texnologik va multimediya resurslarini qo'llaydi. Masalan, maxsus braille materiallari, audio kitoblar. 2. Mediator: o'quvchi, otana, difektolog, logoped, psixolog va boshqa mutaxassislar o'rtasida ko'priq vazifasini bajaradi; konfliktli vaziyatlarni yumshatadi va inklyuziv muhitda psixologik iqlimni boshqaradi. 3. Monitoring va diagnostika mutaxassisi: o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini muntazam o'rganadi; davriy diagnostika asosida individual rivojlanish kartasini yuritadi. 4. Qayta tayyorgarlik va o'zini rivojlantirish subyekti: zamonaviy inklyuziv texnologiyalarni o'zlashtiradi; hayot davomida ta'lim olish prinsipiga asoslanadi. Inklyuziv ta'limni barqaror rivojlanishi pedagogning professional va shaxsiy sifatlariga bevosita bog'liq hisoblanadi.

Integratsiya lotincha „integration" - butunlashiah, birlashtirish degan ma'noni anglatadi. Turli qismlar, tizimlar yoki elementlarning yagona, yaxlit bir butun holga kelish jarayonidir. Inklyuziv integratsiya-bu ta'lim jarayonida imkoniyat cheklangan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni sog'lom va ijtimoiy faol bolalar bilan yagona ta'lim muhitida

birlashtirish va ularni qo'llab-quvvatlash jarayoni hisoblanadi. Inklyuziv integratsiya-bu shunchaki birlashtirish emas, balki barcha bolalar teng huquqli, qadrli va qulay sharoitda rivojlanishi uchun pedagogik, texnik va psixologik sharoitlarni yaratishdir. Inklyuziv muhit-bu barcha bolalar jumladan, imkoniyati cheklangan bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoki maxsus ehtiyojli o'quvchilar o'zini teng huquqli a'zo sifatida his qiladigan, ularning individual ehtiyojlari inobatga olingan, qulay, xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhiti demakdir. Pedagog uchun muhim kompetensiyalar. Pedagogik-psixologik kompetensiya-nogorpnlik turlari, ularning ta'limga ta'sirini tushunish. Innovatsion kompetensiya-AKT vositalari, mobil ilovalar va moslashuvchan platformlardan foydalanish. Kommunikativ kompetensiya-murakkab muloqot vaziyatlarni boshqarish. Etik kompetensiya-har bir o'quvchining sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.N. Mamarajabova; B.Q.Subanova. Inklyuziv ta'lim o'quv-qo'llanma. Toshkent 2022-yil.
2. N.B.G'oiyeva. inklyuziv ta'lim. Gosital pedagogika. Namangan 2024-yil.
- 3.YuNESKO Salamanca Statement 1994.
- 4.JSST va YuNESKO ma'lumotlari 2023-yil.
5. Ainsow.M. Developing inclusive education systems: What are the leavers for change? Journal of Educational change.
6. Booth.T; Ainsow.M 2011. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5150-son qarori 2021-yil 18-iyun.
8. Fayzullayeva.G. inklyuziv ta'lim asoslari. Samarqand 2024-yil.
9. Vgotskaya.L.S; Lubovskiy.V.I. Inklyuziv or pbrazozvanie: teoriya va praktika.